

**AJINIYAZ ASARLARINING TURK TILIDAGI TARJIMALARI: ASOSIY NUSXA
BILAN TARJIMANING QIYOSIY TAHLILI**

Qaypanova Altingul Oatesh qizi,
QDU magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18666528>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq adabiyotining taniqli vakili Ajiniyaz Qosibay o'g'lining asarlarining turk tiliga qilingan tarjimalari asosiy matn bilan taqqoslab o'rganiladi. Ishda mazmuniy ekvivalentlik, uslubiy shakl, obrazlar tizimi va milliy an'analar tarjimada qanday darajada saqlanganligi o'rganiladi. Asosiy qoraqalpoqcha matn bilan turk tilidagi tarjimalar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar aniqlanib, tarjimaning yutuqlari va muammoli jihatlari kórsatiladi.

Kalit so'zlar: Ajiniyaz, badiiy tarjima, turk tili, qiyosiy tahlil, ekvivalentlik.

Annotation. This article examines the Turkish translations of the works of Ajiniyaz Qosibay, a prominent figure in Karakalpak literature, comparing them with the original texts. The study investigates the extent to which semantic equivalence, stylistic form, the system of images, and national traditions are preserved in the translations. The similarities and differences between the original text and the Turkish translations are identified, and the successful and problematic aspects of the translation are highlighted.

Key words: Ajiniyaz, literary translation, Turkish language, comparative analysis, equivalence.

Аннотация. В данной статье переводы произведений выдающегося представителя каракалпакской литературы Ажинияза Косыбай улы на турецкий язык изучаются в сопоставлении с оригинальным текстом. В работе анализируется степень сохранения содержательной эквивалентности, поэтической формы, системы образов и национальных традиций в переводе. Определяются сходства и различия между оригиналом и переводами на турецкий язык, а также выявляются успешные и проблемные стороны переводческого процесса.

Ключевые слова: Ажинияз, художественный перевод, турецкий язык, сравнительный анализ, эквивалентность.

Kirish. Ajiniyaz Qosibay o'g'li XIX asr qoraqalpoq adabiyotining eng ko'zga ko'ringan atoqli shoirlarining biri bo'ldi. Uning ijodiy faoliyati o'ziga xos uslubi, janr xilma-xilligi, tematik boyligi va badiiy o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shoirning she'rlari nafaqat qoraqalpoq adabiyoti doirasida, balki butun turkiy adabiyot maydonida ham muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun Ajiniyazning ijodini boshqa turkiy tillarga tarjima qilish masalasini o'rganish muhimdir.

Adabiy tarjima jarayonida eng muhim masalalardan biri – asl matnning mazmuni va shaklini tarjimada qanchalik darajada saqlab qolishdir. Ayniqsa, she'ni tarjima qilishda vazn, qofiya, obrazlar va milliy ruh alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun, Ajiniyaz asarlarining turk tilidagi tarjimalarini asl qoraqalpoq tilidagi matn bilan taqqoslab o'rganish ilmiy jihatdan dolzarb masaladir.

Adabiyotlar tahlili va metod. Ushbu tadqiqotda Ajiniyaz Qosibay o'g'lining turk tiliga tarjima qilingan va to'plam sifatida nashr etgan "Karakalpak shairi Ajiniyaz Qosibay uli" kitobidagi ayirim she'rlarni taqqoslash tahlili berilgan. Tadqiqot obyekti – asosiy va tarjima qilingan matnlar bo'lsa, predmeti – tarjimada mazmun, shakl va poetik elementlarning qanday ifodalangani hisoblanadi.

Tadqiqotda zamonaviy tarjimashunoslik nazariyasining yetakchi vakillari – V.N.Komissarov, A.V.Fedorov, J.C.Catford va E.Nidaning ilmiy qarashlari asosiy metodologik baza sifatida qo‘llaniladi.

V.N.Komissarov tarjimada ekvivalentlikni markaziy tushuncha sifatida belgilaydi [6]. Olimning fikricha, tarjima asl matnning mazmuni, kommunikativ vazifasi va pragmatik ta‘sirini saqlab, yangi til muhitida qayta yaratilishi lozim.

A.V.Fedorov badiiy tarjimada mazmun va shaklning uyg‘unligini asosiy tamoyil sifatida belgilaydi [1]. Ajiniyaz she‘rlaridagi poetik vositalar – metafora, epitet, ritm, qofiya va parallelizm – turk tilidagi tarjimada qanday ifodalanganini tahlil qilish uchun ushbu nazariya asos sifatida olinadi. Shu yondashuv orqali tarjimaning badiiy uslub va estetik ta‘sirini saqlash darajasi aniqlanadi.

“Ajiniyaz asarlaridagi metaforalar, allegoriyalar, simvollar, metonimiyalar, epitetlar haqida taniqli olimlarimiz K. Mámbetov, Á. Pirnazarov, Q. Bayniyazov, A. Murtazaev, B. Qálimbetov va boshqalar o‘zlarining keng qamrovli tadqiqotlarida so‘z yuritdilar. Biroq, bu tadqiqotlarda Ajiniyaz lirikasining poetik qiymatini belgilaydigan bunday ajoyib badiiy vositalarning shoirning ruhiy dunyosini ochishdagi ahamiyatiga e‘tibor kam qaratilgani sezilib turadi” [2:13]. Ajiniyoz she‘riyatida xalq an‘anasi bilan uyg‘unlashgan badiiy vositalar juda ko‘plab uchraydi. Bu unsurlar o‘quvchiga chuqur hissiyot bag‘ishlab, xalqona ruhni yetkazishning asosiy vositasiga aylanadi.

J.C.Catford nazariyasiga ko‘ra, tarjima jarayonida yuzaga kelgan leksik va grammatik siljishlar ikki til tizimidagi farqlar natijasida tabiiy hol bo‘lib, ular matnning ma‘nosiga ta‘sir qilmaydi [5]. Shu sababdan Ajiniyaz she‘rlarining turkcha tarjimalaridagi o‘zgarishlar ham til farqlari bilan izohlanadi..

E.Nidanin ekvivalentlik nazariyasiga ko‘ra, tarjimada maqsad asl matn o‘quvchisida yuzaga kelgan ta‘sirni yangi til o‘quvchisida yaratishdir [3].

Ushbu metodologiya Ajiniyaz she‘rlarining turkcha tarjimalarini ilmiy, tizimli va nazariy asoslangan tarzda qiyoslashga imkon beradi.

Natijalar va muhokama. Bu tarjimada Ajiniyaz Qosibay o‘g‘lining she‘rlari el-yurt haqida she‘rlar, vidolashish va salom she‘rlari, muhabbat she‘rlari, nasihat she‘rlari, foniyo dunyo haqida she‘rlar, ayriliq she‘rlari, yumor-satiralıq qosıqlar, naziyra qosıqları, aytıslar deb bo‘lib keltiriladi.

Ajiniyaz asarlarida haqiqiy ajiniyozcha, qoraqalpoqcha pafos sezilib turadi. Masalan shoirning “Davron bo‘lmadi” she‘rida:

Sánemler qolında tilla saz edim,
Háwıjge keltirer janan bolmadı,
Tuğırında talpınğan algır baz edim,
Qálpe sayyadlarım maman bolmadı [4:130].

Bul qatorlarning faqat qoraqalpoq tilida ta‘sirliligi kuchli seziladi. Endi turk tilidagi tarjima nusxasiga ham diqqat qarataylik:

Güzeller elinde altın saz idim,
Gayrete getiren canan olmadı,
Kafeste çırpınan avcı kuş idim,
Kuş eğitmenlerim uzman olmadı [4:131].

Ko‘rib turganimizdek turk tilidagi tarjimada qoraqalpoq tilidagi kabi ta’sirliligi sezilmaydi. Qoraqalpoq tilida qanday yozilgan bo‘lsa turk tilida ham huddi shunday so‘zma-so‘z berilgan. Shuningdek badiiy ta‘sir ham qoraqalpoq tilidagidek kuchli emas. Bu she‘rni faqat qoraqalpoq tilida o‘qish kerak.

Ajiniyaz shoirning “Bilmedim” degan she‘rida:

Xabar joq elimnen adam kelmeydi,
Ne halda ekenim heshkim bilmeydi,
Shaqalaqlap qatarlarim kilmeydi,
Ne bir halat bolganini bilmedim [4:146].

Turkcha tarjimada:

Haber yok ilimden insan gelmiyor,
Ne hallerdeyim hiç kimse bilmiyor,
Neşelenip akranlarım gülmüyor,
Ne haller olduğunu anlamadım [4:147].

Bu yerda tarjimon “bilmedim” degan so‘zni “anlamadim” deb tog‘ri qo‘llangan. Ammo “Bilmedim” degan she‘rning atamasini tarjimada “Almadim” deb keltiradi. Uni “Almadim” deb emas “Anlamadim” deb qo‘llansa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. She‘rning qatorlarida “Anlamadim” deb qo‘llangan biroq, she‘rning mavzusini “Almadim” deb keltirgan.

Turk tilidagi tarjima nusxalarda badiiy ta‘sir to‘liq saqlanmaydi. Masalan “Bozatawlı nâzelim” she‘rida:

Kirpiklerin süzip baqqan nâzerin,
Juldızdı jawratıp tünnen bezdirer [4:224].

Turkcha tarjimada:

Kirpiklerin süzüp bakan nazarın,
Yıldızı örtüp geceden bezdirir [4:225].

Bu she‘rda qizni go‘zalligi tabiat ramzi orqali berilgan. Yani qizning nozik qarashi yulduzning yorug‘ini o‘chirib, tunni zerikarli qiladi. “Jawratıp” so‘zi qiyin ahvolga tushish, qiynalish degan ma‘noni bildiradi. Tarjimada bo‘lsa “örtüp” (jasırıw) degan oddiy so‘z bilan almashtirilgan.

Shóbinde shifáát, qusında kiye,
Bularđın bārshesi elimde bardı.

Turkcha nusxada:

Otunda şıfa, kuşunda mucizesi,
Bunların bütünü yurdumda vardır

Bu yerda tabiatning shifobaxsh xususiyati bilan qushlar olamining ajoyib jihatlari poetik turda berilgan. Qoraqalpoq tilidagi “bárshesi” so‘ziga alohida yuklama berilgan. Turkchada “bütünü” deb berilgani bilan, emotsional ta’sir kamaygan. Shu kabi ayrim she’rlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilgani bilan estetik ta’siri kamayadi.

“Qiz bala kamala kelse” she’ridan ham misol keltiraylik:

Qiz bala kamala kelse,

Almadek pishkana megzer [4:278].

Turkcha tarjimada:

Kız evlat kemala erse,

Elma dek olmuşa benzer [4:279].

Bu she’rda qiz bolaning bo‘y yetib, chiroyli va go‘zal qizga aylanishi olmaga tenglashtiriladi va bu keng tarqalgan klassik poetik o‘xshatishdir. Asl nusxadagi "olmadek pishkana" - qizarib pishgan, obdon yetilgan olma ko‘rinishi qiz bolaning ichki va tashqi go‘zalligini ifodalaydi. Tarjimada ma’no aniq, ravshan berilgani bilan “pishkana” (pishkan alma) so‘zining nozik ma’nosi “olmuş” degan salqin so‘z bilan beriladi. Chunki bu so‘z turkchada ko‘pincha rasmiy ma’noda ishlatiladi.

Ajiniyoz asarlarida qoraqalpoq xalqining milliy urf-odat an’anasi, tarixiy taqdiri chuqur tasvirlanadi. Shoir she’rlarida tug‘ilgan yer, milliy taomlar, milliy o‘yinlar, mardlik va mehmondo‘stlik kabi urf-odatlar ko‘p qo‘llanadi. Ammo tarjimada bu an’analarni turk o‘quvchisiga yetkazib berishda kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Masalan:

Bizniñ eldi on tórt urıw diyerler,

Qız-jawanı qızıl-jasıl kiyerler,

Haytta, toyda at arbağa minerler,

Ne bir gózzal, sulıw qızları bardı [4:102].

Turkcha tarjimada:

Bizim yurdu on dört uruk derler,

Kız, gelini kızıl yeşil giyerler,

Toyda at arbasına binerler,

Ne kadar güzel hoş kızları vardır [4:103].

Bu yerda qoraqalpoq xalqining an’anaviy to‘y berishi aks etgan. "At arba" - bizdagi an’ananing alohida ramzi. "Qızıl-jasıl kiyimlar" - an’anaviy qizil, yashil kiyimlar. U qoraqalpoq xalqining milliy kiyinish uslubini tavsiflaydi. Tarjimada bu so‘zlarning milliy ma’nosi izohlanmaydi. Agar eslatma berilib, ma’nosi tushuntirilganda milliy koloritni o‘zga millat vakillariga yanada aniqroq yetkazishga xizmat qilgan bo‘lardir.

Xulosa. 2024 yilda Istanbul shahrida nashr etilgan to‘plamdagi tarjimalar Ajiniyoz ijodini xalqaro miqyosga tanitishda katta qadamdir. Tarjimada asosan mazmun va g‘oya to‘g‘ri saqlangan, shoirning hayotiy shiori va falsafasi turk o‘quvchilariga yetkazilgan. Bu tarjimonning ishga ixlos bilan yondashganini ko‘rsatadi. Chunki tarjimon faqat tilni emas, ma’naviy milliy mazmunni, mahalliy koloritni yetkazuvchi shaxs.

Ajiniyaz asarlarining qoraqalpoq va turk tillaridagi nusxalari orasida umumiy yaqinliklar ko'p. Turk tilidagi tarjima orqali Ajiniyoz ijodi keng o'quvchilar ommasiga yo'l oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. А. В. Федоров. Основы общей теории перевода. – М: Высшая школа, 1983.
2. Б. Генжемуратов. Ажинияз лирикасының поетикасы. - Нөкис: Билим, 1997.
3. E. Nida. Toward a Science of Translating. – Leiden: E. J. Brill, 1964.
4. Н. Yıldırım. Karakalpak şairi Ajiniyaz Kosıbay ulı. – Istanbul: Türk Akademisi, 2024.
5. J. S. Catford. Linguistic Theory of Translation. – Oxford: Oxford University Press, 1965.
6. В. Н. Комиссаров. Общая теория перевода. – М: Высшая школа, 1990.

